



## Ilmiy tadqiqot faoliyati

Institutning ilmiy-tadqiqot ishlarida kafedralardan 464 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradi. Ularning 2 nafari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, 67 nafar fan doktori, professorlar, 165 nafar fan nomzodi va PhD ilmiy darajasiga va dotsent ilmiy unvonlariga ega bo'lganlar, 230 nafari katta o'qituvchilar, assistentlardan iborat. Ilmiy salohiyat 50,4 % ni tashkil etadi.



### Davlat ilmiy-texnika dasturlari va xo'jalik shartnomalari doirasida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari

Institutda 3 ta fundamental, 17 ta amaliy, 2 ta yosh olimlar amaliy hamda 2 ta innovatsion grant loyihalari, 22 dan ortiq soxa tashkilotlari bilan tuzilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik hamda xo'jalik shartnomalari, **65** dan ortiq Davlat byudjeti hisobidan tashabbuskor ilmiy ishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. 17 ta Davlat granti asosidagi **amaliy tadqiqotlar** - umumiy qiymati **2 mlrd. 379 mln.so'm**, 2 ta yosh olimlar amaliy tadqiqotlar - umumiy qiymati **133,6 mln.so'm**, 3 ta Davlat granti asosidagi fundamental tadqiqotlar - umumiy qiymati **313 mln.so'm**, 2 ta Davlat granti asosidagi innovatsion loyihalar - umumiy qiymati - **230,2 mln.so'm**, 22 ta boshqa tashkilotlar bilan tuzilgan xo'jalik shartnomalari asosidagi ilmiy tadqiqotlar umumiy qiymati - **591,5 mln.so'm**. Jami 2019 yilda ilmiy-tadqiqot ishlariga institutda **3 mlrd. 647,2 mln.so'm** miqdoridagi byudjetdan tashqari mablag' jalb etildi.




### Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari

Har yilda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha institut olimlari tomonidan

**83** dan ortiq monografiyalar,

**35** dan ortiq darsliklar,

**101** ta o'quv qo'llanmalar



Scopus, "Web of Science" xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidagi jurnallarida

**176** ga yaqin,

chet el ilmiy jurnallarida **330** ga yaqin,

xalqaro anjumanlar to'plamlarida **240** dan ortiq,

respublika ilmiy jurnallarida **735** ga yaqin, respublika ilmiy konferensiyalar to'plamlarida 210 dan ortiq

ilmiy - uslubiy ishlar chop etilishi yo'lga qo'yilgan.



Shu bilan birga yiliga 5 ta ixtiro uchun patent, 8 ortiq ishlanmaga foydali model uchun patent, 70 ga yaqin mualliflik guvohnomalari olinmoqda.